O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
KATTAQO‘RG‘ON FILIALI

Ro‘yxatga olindi
№ BD-60110900
2023 yil “__”_____

“TASDIQLAYMAN”
Direktor:
_____ Sh.R.Urakov
2023 yil “__”_____

T/F. PARAZITOLOGIYA FAN DASTURI

Bilim sohasi:	500 000 – Tabiiy fanlar
Ta’lim sohasi:	510 000- Biologik va turdosh fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60110900 - Biologiya

Kattaqo‘rg‘on – 2023

CamScanner yordamida skanerlangan

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
	2024-2025	4	4
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Tanlov fan	O‘zbek		4

1.	Fan nomi	Semestr	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
	Parazitologiya	4	60	60	120

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad - parazitizm to’g’risida tushuncha berish, parazit organizmlar to’g’risida, ularni kelib chiqishi, parazit-xo’jayin munosabatlari, yirtqich va parazitlar orasidagi farqlar. Parazit organizmlarni yashashga moslashuvi, parazitlarni hayot sikli bilan bakalavr talabalarni tanishtirishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarga parazitlar va ularni yuqtiruvchilarini hayot siklidagi rivojlanishning barcha bosqichlarida bioekologik xususiyatlarini, atrof-muhitning turli omillariga nisbatan munosabatini o’rgatish. Parazitning odam yoki hayvon, shuningdek o’simlik organizmiga salbiy ta’sir qilish darajasini o’rganib, ushbu jarayonlarni oldini olish va profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish.

CamScanner yordamida skanerlangan

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu."Parazitologiya" fanining predmeti va vazifalari. Parazitologiyaning rivojlanish tarixi

Parazitologiya fanining predmeti, tarkibi va vazifalari. Parazitalogiya fanining tarixi. Odam va hayvonlar hamda madaniy o'simliklar parazitlarining o'rganilish tarixining asosiy bosqichlari. Chet el olimlarining ishlari va uning ahamiyati. O'zbekistonda parazitologiya fanining rivojlanishi. O'zbek parazitolog olimlari va ularning xizmatlari. Sharq olimlarining (Ibn Sino va boshqalar) qo'shgan hissalari. Umumiy parazitologiya fanining rivojlanishida O'rta Osiyo va xususan O'zbekiston olimlarining roli.

2-mavzu. Tirik organizmlarning o'zaro munosabat shakllari va uning asosiy shakllari. Parazit va xo'jayin orasidagi bog'lanishlarning turli-tuman shakllari. Parazitizmni turli xil ko'rinishlari va u bilan bog'liq bo'lgan xodisalar. Parazitizmning turli formalari. Parazitizm, Simbioz. Sinoykiya, ijara turlari, kommensalizm, mutualizm. Fakultativ va soxta parazitizm. Parazitlarni xo'jayinlariga bo'lgan munosabatlari.

3-mavzu. Doimiy (statsionar) parazitizm. Asosiy shakllari. Parazitlarning xo'jayinlari. Parazit va xo'jayin orasidagi munosabatlar. Fakultativ va soxta parazitizm. Parazitlarni xo'jayinlariga bo'lgan munosabatlari. Vaqtinchalik parazitizm. Stasionar parazitizm.

4-mavzu. Xo'jayinning parazitga ta'siri. Immunitet va uning shakllari. Tashqi muhit omillarining parazit va xo'jayinga ta'siri

Doimiy parazitizm. Parazitizmning hayotiy zarurligi.

5-mavzu. Parazitlarning tuzilishi va hayot siklidagi adaptasiyalar. Parazitlarning tashqi belgi va morfologik adaptatsiyalari.

Monofag va polifag parazitizm. Geteroksen parazitlar. Parazitlarning xo'jayin almashtirishi. Asosiy va oraliq xo'jayinlar haqida tushuncha.

6-mavzu. Infeksion va invazion kasalliklar. Transmissiv kasalliklar. Kasalliklarning tabiiy manbai haqidagi ta'limot. Infeksion va invazion kasalliklar. Transmissiv kasalliklar, obligat, fakultativ tabiiy o'choqli kasalliklar.

7-mavzu Tibbiy protozoologiya. Kasallik tarqatuvchi sodda hayvonlar O'ta parazitlikka moslashish. Jinsiy yo'l bilan ko'payish orqali amalga oshish. Parazitlarning birgalikda hayot kechirishi. Sarkodalilar. Tripanasoma, lyamblya, trixomonadalar, sporalilar, toksoplazmalar, qon sporalilar

8-mavzu. Parazit yassi chuvalchanglar. So'rg'ichlilar sinfi. Yassi chuvalchanglar tipi. Jigar qurti va mushuk so'rg'ichlisi, lansetsimon so'rg'ichli, o'pka va qon so'rg'ichlilari.

CamScanner yordamida skanerlangan

9-mavzu. Parazit yassi chuvalchanglar. Tasmasimon chuvalchanglar sinfi. Qoramol va cho'chqa solityorlari, pakana gijja. serbar lentasimon chuvalchanglar

10-mavzu. Yumaloq chuvalchanglar tipi. Parazit turlari. Askarida va ostritsa, egri (qiyshiq) boshli gijja, qil boshli gijja, trixinella, rishta, filyariyalar oilasi parazit vakillari.O'simliklarning turli vegetativ a'zolarida va rizosfera tuprog'ida yashovchi parazit fitonematodalar

11-mavzu. Ektoparazit bo'g'imoyoqlilar. Tarqatuvchi kasalliklari, profilaktikasi. Kanalar. Asosiy guruhlari. Yaylov va tayga kanalari. Qichima va it kanalari. Kasalliklarni tarqatishda kanalarning roli

12-mavzu. Qon so'ruvchi hasharotlar. Kasalliklarni tarqatishdagi roli. Chivinlar, iskaptoparlar va qonso'rar pashshalar. Asosiy turlari. Tuzilishi va hayot sikli xususiyatlari. Ularning kasallik tarqatishdagi roli.

IV. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Laboratoriya mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ichburug' amyobasi. Tuzilishi va hayot sikli. Vegetativ shakllari. Yuqishi, zarari va profilaktikasi
2. Tripanosomalar va leyshmaniyalar. Tuzilish xususiyatlari. Hayot sikllari. Yuqishi, zarari va profilaktikasi
3. Koksidiya va toksoplazma. Tuzilishi va hayot sikllari. Rivojlanish xususiyatlari. Yuqishi, zarari va profilaktikasi
4. Qon sporalilari - *Haemosporidia.* Bezgak parazitlari. Tuzilishi va hayot sikli. Zarari va profilaktikasi
5. Jigar qurti va mushuk so'rg'ichlisi. Tuzilishi va hayot sikli. Yuqishi, zarari va profilaktikasi
6. Lansetsimon so'rg'ichli, o'pka va qon so'rg'ichlilari. Tuzilishi va hayot sikli. Yuqishi, zarari va profilaktikasi
7. Qoramol va cho'chqa solityorlarining tuzilish xususiyatlari va hayot sikllari. Yuqishi, zarari va profilaktikasi
8. Pakana gijja. serbar lentasimon chuvalchanglarning tuzilish xususiyatlari va hayot sikllari. Yuqishi, zarari va profilaktikasi
9. Odamning parazit nematodalari: askarida va ostritsa. Tuzilishi va hayot sikli. Yuqishi. Zarari va profilaktikasi
10. Yumaloq chuvalchanglar: egri (qiyshiq) boshli gijja, qil boshli gijja. Tuzilishi va hayot sikli. Yuqishi. Zarari va profilaktikasi.
11. Yumaloq chuvalchanglar: trixinella, rishta, filyariyalar oilasi parazit vakillari.
12. O'simliklarning turli vegetativ a'zolarida va rizosfera tuprog'ida yashovchi parazit fitonematodalar
13. Ovogelmentaskopiya.
14. Kanalar. Tuzilishi va xususiyatlari. Asosiy guruhlari. Yaylov va tayga kanalari. Kasalliklarni tarqatishda kanalarning roli
15. Qichima va it kanalari. Kasallik tarqatishdagi roli.

CamScanner yordamida skanerlangan

16. Bitlar va burgalar. Tuzilishi va hayot kechirish tarzi. Kasallik tarqatishdagi roli.
17. Chivinlar, iskaptoparlar va qonso'rar pashshalar. Asosiy turlari. Tuzilishi va hayot sikli xususiyatlari. Ularning kasallik tarqatishdagi roli
18. L.M.Isayev nomidagi Parazitologiya ilmiy-tadqiqot institutiga amaliy ekskursiya

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Parazitologiya fanining rivojlanishida akad.K.I.Skryabinning roli
2. O'zbekistonda fitogelmintologiyaning shakllanishi va rivojlanishida akad.A.T.To'laganovning roli
3. Bir xujayrali (kipriklilar) parazitlar va ular keltirib chiqaradigan kasalliklar.
4. Parazit infuzoriyalarni turli umurtqali hayvonlarda keltirib chiqaradigan kasalliklari va ularni profilaktikasi
5. Kasalliklarni yuqtiruvchi bo'g'imoyoqlilarga qarshi kurash tadbirlari. Profilaktik, fizikaviy, kimyoviy va biologik kurash choralari
6. O'zbekistonda teri leyshmaniozi va ularni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar
7. Gelmintlar. Gelmintozlar. Profilaktika. Ularga qarshi kurash chora-tadbirlari
8. Knidosporidiya va mikrosporidiyalar tiplarining umumiy tavsifi,sistematikasi va uning maxsuldor xayvonlarda parazitlik qilib, qo'zg'atadigan kasalliklari.
9. So'rg'ichlilar sinfidan-prostogonimus, o'pka so'rg'ichlisi va metagonimozlar qo'zg'atuvchilarining tuzilishi, rivojlanish sikli zarari va oldini olish choralari.
10. Baliqlarda parazitlik qiluvchi mollyuskalar va qisqichbaqasimonlar
11. Odam va hayvonlarda parazitlik qiluvchi kanalarning tuzilishi va ko'payishi.
12. Odam va hayvonlarda parazitlik qiluvchi qandalalar.
13. Kanalar orqali yuqadigan infeksion va invazion kasalliklar.
14. Parazitlarning yashashga moslashgan belgilari.
15. Tuproq nematodalarining ekologik tasnifi (Jeates, 1993 bo'yicha)

3	**V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar** **Talaba bilishi kerak:** • fanning tushuncha kategoriyalari tizimi va metodologiyasini bilish, bilimlarning asosiy yo'nalishlarini bilish va tahlil qilish, bir va ko'p hujayrali hayvonlarni, parazit umurtqali hayvonlarni tuzilishi va

CamScanner yordamida skanerlangan

	tarqalishi, ekologiyasi, ahamiyati, parazit hayvonlar haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • sohalar bo`yicha umurtqali hayvonlarni farqlay olish, umurtqali hayvonlarni ekologiyasi, parazit umurtqasiz hayvonlardan **saqlanish yo'llarini bilishi;** • umurtqalilarning asosiy bo'limlari, guruhlari, tiplari va sinflarini puxta bilish, ushbu taksonomik birliklarga mansub hayvonlarni xususiyatlari, tashqi va ichki tuzilishini puxta bilish, hayvonlarning belgilarini organ va sistemalarining yashash muhitining o'zgaruvchan omillari bilan bog'liq ravishda shakllanganligini chuqur anglash va ularni sistematik jihatdan ajrata olish malakalariga ega bo'lishi kerak.
4	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • Ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • guruhda ishlash; • individual loyihalar; • Prezentatsiyalar; • Blits-so'rovlar
5	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6	**VIII. Asosiy adabiyotlar:** 1. Дадаев С., Абдурахмонова Г. Умумий паразитология. -Тошкент. 2013. -384 б. 2. Дадаев С.Д. Паразитология. -Тошкент. 2006. -207 б. 3. Xakimov N.X. Umumiy parazitologiya. Ma'ruzalar matni. Samarqand, 2004 4. Догель В.А.Общая паразитология. Ленинград. 1962. -464 с. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. Геницинская Т.А., Доброволький А.А. Частная паразитология в 2 частях М.: «Высшая школа», 1978. 2. Эшова Х.С., Мавлонов О.М. Умуртқасизлар зоологияси. -Тошкент, 2006. -480 б. 3. Қулмаматов А. Умуртқасиз паразит хайвонлар. -Т.; «Ўқитувчи», 1988. -185 б.

CamScanner yordamida skanerlangan

	4. Мўминов Б.А.., Х.С.Ешова., М.Ш.Рахимов. Умуртқасизлар зоологиясидан амалий машғулотлар. Тошкент, 2005. 5. Крашкевич В.Н., Тарасова Медицинская паразитология. Москва, Медицина, 1978. 6. Xakimov N.X., Xamidova A.B. Parazitologiyadan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlari. Samarqand, 2012 7. Yeates GW, et al. 1993. Feeding habits in soil nematode in families and genera-an outline for soil ecologists. J. Nematology 25 (3): 315-331. 8. Narzullayev. Gelmintologiya. O'quv qo'llanma. Samarqand 2023. **Axborot manbalari (saytlar):** 1. www.zivonet.uz 2. www.natl.uz 3. www.nature.uz 4. www.pedagog.uz 5. www.rusplant.ru; 6.www.floranimal.ru 7. https://fen.istanbul.edu.tr/en/akademikkadro
7	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali kengashining 2023 yil ___ _____ _____ son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8	**Fan/modul uchun mas'ullar:** G.G'.Normurodova SamDUKF Aniq va tabiiy fanlar fakulteti "Aniq va tabiiy fanlar" kafedrasi assistenti.
9	**Taqrizchilar:** M.B.Ashurov SamDUKF Aniq va tabiiy fanlar fakulteti "Aniq va tabiiy fanlar" kafedrasi assistenti. (ichki) F.Xalimov SamDU Biologiya fakulteti "Zoologiya" kafedrasi dotsenti (tashqi)

CamScanner yordamida skanerlangan